



**“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini
mexanizatsiyalash muhandislari instituti”
Milliy tadqiqot universiteti**



FAN:

**“MASHINALARDAN
FOYDALANISH ASOSLARI”**

MAVZU

4

**Mashinalardan foydalanish
samaradorligining nazariy
asoslari**



Berdimuratov Paraxat Tadjimuratovich



**Muhandislik tizimlarni
boshqarish kafedrasи dotsenti**



4- mavzu: Mashinalardan foydalanish samaradorligining nazariy asoslari

Reja: 1. Mashinaning texnik
samaradorligini ishlab
chiqarishdagi ahamiyati;
2. Texnik samaradorlik
va uni oshirish yo‘llari.

Mavzu bo‘yicha bilim saviyasini baholash

Tushunchalar

Tayanch iboralar: texnik samaradorlik, dalaning shakli hamda aggregatning ish va salt yurishdagi tezligi va parametr-larini nisbiy koeffisientlari, texnik samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar.

Nazorat savollari

Mashinaning samaradorligi deganda nimani tushunasiz?

**Bilaman
(dars boshida yoziladi)**

**Bilishni xohlayman (dars
boshida yoziladi)**


**Bilib oldim (dars
oxirida yoziladi)**

1. Mashinaning texnik samaradorligini ishlab chiqarishdagi ahamiyati

Qishloq xo‘jaligida zamonaviy texnikalardan tuzilgan agregatlardan foydalanish, eng avvalo ularning foydalanish ko‘rsatgichlarini yaxshilash hisobiga ish unumini oshirishning ilg‘or usullarini qo‘llash hamda bajariladigan ishlarni tashkil etishning yangi tartib va qoidalarini ishlab chiqarishga joriy qilinishini taqqaqa etadi.


Ma'lumki, agregat dalaga ishlov bermaganda (salt yurganda) u vaqtini bekorga sarflagan hisoblanadi. Uning **dalada ishlayotgan paytdagi salt yurishlarini iloji boricha qisqartirish qimmatbaho ish vaqtini va energiya sarfini kamaytirish imkonini beradi.**

Agregatni ish jarayonidagi xarakati



a)

Agregatning dala bo‘ylab ish (a) va salt(b) yurishi



б)

Agregatni har bir kilometr oshiqcha salt yurishi uning ish unumini kamayishiga va yoqilg‘i sarfini oshishiga olib keladi.

2. Mashinanining texnik samaradorligi

Har bir qishloq xo‘jalik aggregatini bevosita dalada ishlatish jarayonida uning **texnik samaradorligi** uning **samarali vaqtini, ya’ni dala bo‘ylab ish yurishlari uchun ketgan vaqtini umumiy** (ish va salt yurishlari uchun) **ketgan vaqtga nisbatini foizlarda aniqlangan qiymati bilan belgilanadi.**

Agregat dalaga ishlov bermaganda (salt yurganda) u vaqtini bekorga sarflagan bo‘ladi. Uning dalada ishlayotgan paytdagi salt yurishlarini iloji boricha qisqartirish qimmatbaho ish vaqtini ko‘paytirish va energiya sarfini kamaytirish imkonini beradi.

MASHINANING TEXNIK SAMARADORLIGI

$$TC = \frac{T_{\text{И}}}{T_{\text{И}} + T_{\text{С}}} \cdot 100\% \quad (1)$$



bu yerda : $T_{\text{И}}$ – ish yurishlar uchun ketgan

vaqt, soat;

$T_{\text{С}}$ - salt yurishlar uchun ketgan
vaqt, soat.

Mashinaning ish va salt yurishlar uchun ketgan vaqtlar, **mos holda ularning yurishlari yig‘indisini** ($\sum L_i$ va $\sum L_c$) tezliklariga (V_i va V_c) nisbati bilan, ya'ni $T_i = \frac{\sum L_i}{V_i}$ ва $T_c = \frac{\sum L_c}{V_c}$ topiladi.

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, mashina tomonidan ishlov beriladigan dala maydoni uch qismga ajratilgan holda, ya'ni $L_D B_D = L_i B_D + 2EB_D$ dan iborat maydonlarga bo‘lib ishlov beriladi.



Rasm. Agregat bilan ishlov beriladigan maydonning o‘lchamlari (a) va uning dala oxirida burilish sxemasi (b).

Bu maydonlarga ishlov berishda mashinaning ish yurishlari yig‘indisi :

$$\sum L_i = L_i N_i + 2B_D N_e = (L_d - 2E) \frac{B_d}{B_m} + 2B_D \frac{E}{B_m} \quad (2)$$

va salt yurishlar yig‘indisi

$$\sum L_c = L_c N_c + 2L_c N_e = L_c \left(\frac{B_d}{B_m} - 1 \right) + 2L_c \left(\frac{E}{B_m} - 1 \right) \quad (3)$$

tashkil etadi.

Bu ko‘rsatgichlar maydon uzunligi L_d va kengligi V_d , burilish yo‘lagini kengligi Y_e , mashinaning konstruktiv V_k va qamrash V_m kengliklari, ish yurish L_i va burilishdagi salt yurish L_c uzunliklari, ish N_i va salt N_s yurishlar soni hamda burilish yo‘lagidagi ish va salt yurish soni N_e ga bog‘liq bo‘ladi.

Ish va salt yurishlar ko‘rsatgich-larini
(1) formulaga qo‘yib va bir qator
soddalashtirishdan so‘ng quyidagi
ko‘rinishga ega bo‘lamiz.

$$TC = \frac{1}{1 + \frac{V_{И}}{V_{С}} \cdot \frac{B_{Д}}{L_{Д}} \left(\frac{L_{С}(B_{Д} + 2E - B_{М})}{B_{Д}^2} \right)} \quad 100\% \quad (4)$$

$$\text{Agar } \frac{V_i}{V_c} = A, \quad \frac{B_d}{L_d} = B, \quad \left(\frac{L_c(B_d + 2E - B_m)}{B_d^2} \right) = C$$

deb belgilasak, u holda formula (2) ni quyidagicha yozish mumkin:

$$\Phi C = \frac{1}{1 + A B C} \cdot 100\% \quad (5)$$

Bu yerda:

A – mashinaning ish rejimidan foydalanish koeffisienti (ish va salt yurish tezliklari);

V - dalaning o‘lchamlarini hisobga oluvchi koeffisient (bo‘yi va eni)

S - mashinaning parametrlarini hisobga oluvchi koeffisient (kinematik uzunligi, qamrash kengligi, burilish radiusi va h.)

Xulosa va takliflar

1. Koeffisient A operatorning mahoratiga bog‘liq bo‘lib, agregatning salt yurish tezligini uning ish yurish tezligiga tenglashtirilganda ($V_s = V_i$) foydalanish samaradorligi o‘zining eng yuqori qiymatiga ega bo‘ladi;

2. Dalaning eniga nisbatan uzunligini oshib borishi bilan ($V \leq 1$) foydalanish samaradorligi ham ortib boradi;

3. Kichik maydonlarga nisbatan katta maydonlarda mashinatning foydalanish samaradorligi yuqori bo‘ladi.

4. Mashinaning salt yurish uzunligi uning kinematik uzunligi va burilish radiusiga bog‘liq bo‘lib, kombinasiya-lashtirilgan va tirkama mashinalar bilan ishlatilganda uni faydalanish samaradorligi kamayadi.

5. Foydalanish samaradorligini oshirishda osma va manevrchanligi (chaqqonligi) yuqori bo‘lgan mashinalardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.



**"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini
mexanizatsiyalash muhandislari instituti"
Milliy tadqiqot universiteti**



E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!



Berdimuratov
Paraxat



Muhandislik tizimlarni
boshqarish kafedrasи
dotsentи



+ 998 (71) 237 0586



b_parakhat@mail.ru



+ 998 (97) 157-69-88